

Ona yurti - oltin beshiging

TONG yulduzi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
MATBUOT VA AXBOROT
AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR IJTIMOY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN»
XAYRIYA JAMG'ARMASI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi
Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqa boshlagan № 52 (66437)

Sotuvda erkin narxda
2003 yil 22 dekabr dushanba

SIZGA QORXAT YOZAMAN

Kattalarni bilmadimu, bolajonlar o'rtoqlashmoqchiman.

orziqib kutgan kunlar keldi. Bizni uzoq kuttirmay, gupillab qor ham yog'ib berdi. Qorbo'ronlari-yu qishki o'yinlar

«Obod mahalla yili» deb nom olgan mazkur yilimiz bilan xayrlashish arafasida o'tgan yana bir yillik umrimizga bir nazar

tashlab ko'rsak, amalga oshirgan e'zgu ishlarimiz va oshirilmay qolgan rejalarimiz haqida fikrlashib olsak, yomon bo'lmadi, nazarimda. Ertangi kun egalari deya ta'rif berilayotgan biz bolajonlarning ilmi, bilimli bo'lishimiz, sog'lom va barkamol ulg'ayishimiz uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlarni tarozuning bir pallasiga, ularga javoban qilgan ishlarimizni, o'qishdagi, sportdagi yutuqlarimizni esa ikkinchi pallasiga qo'yib ko'raylik-chi.

qizigandan-qizib ketdi. Chana tortgan jajji uka va singilchalarimizning quvonganini aytmaymizmi? Hademay yangi yil ham kirib keladi. Ko'ngillar quvonchga, dasturxonlarimiz nozu-ne'matlarga, bag'rimiz esa qadrdonlarimiz, yorudostlarimizga to'ladi. Yangi yil ayyomida barcha gina-kuduratlar unutiladi, qalbimiz e'zgu-niyatlar bilan limmo-lim bo'ladi...

Shunday faraxbaxsh kunlarda siz aziz tengdoshlarimni samimiy qutlab, dilimdagi ayrim mulohazalarim bilan

Qay biri og'irroq tosh bosyapti? Birinchi pallas, deysizmi? Ha, barakalla. Menimcha ham shunday. To'g'ri, o'ramizda bolalikni oltinga teng fursat bilib, o'qib-o'rganayotgan, yaratilayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalanayotgan, izlanayotgan tengdoshlarimiz juda ko'pchilikni tashkil qiladi. Lekin, bu davrni o'yinqaroqlik bilan o'tkazib, bekorchilikdan turli nojo'ya ishlar

qilib qo'yayotgan, jinoyat va giyohvandlik ko'chalariga kirib qolayotgan bolalar ham yo'q emas-da.

Men, aynan ana shunday tengdoshlarimga qarata murojaat qilmoqchiman: kattalarning aytishlaricha, hech bir mamlakatda bizning davlatimizchalik bolalarga g'amxo'rlik ko'rsatilmay ekan. Akademik-litseylar, kasb-hunar kollejlardagi biz uchun yaratilgan shart-sharoitlarni, sog'lom va barkamol ulg'ayishimiz uchun «Bolalar sporti»ga bo'lgan e'tiborni aytmaymizmi? Shunday ekan, biz ham bu g'amxo'rliklarning qadriga yetaylik, xalqimiz, yurtboshimiz orzulaganlaridek, o'ta-onalarimizdan-da bilimlroq, aqllroq va albatta baxtliroq bo'lishga astoydil harakat qilaylik...

Shu gaplarni aytish uchun qorxat yozish shartmidi, deyayotgandirsiz? Menimcha shart edi. Chunki bunday nasihatlarimiz biz kattalardan, o'ta-onalarimiz, ustozlarimizdan juda ko'p eshitganmiz. Ularni quloqqa oladiganlar ham, olmaydiganlar ham bor. Qorxatning esa o'z qoidasi bor: Unda yozilgan shartlarni bajarish majburiy! Shuning uchun ham QORXAT yozishga ahd qildim.

Dildora IBRAGIMOVA,
Surxondaryo viloyati,
Termiz shahridagi
1- maktabning
9-sinf o'quvchisi.

OPPOQ QOR

Derazamning oldida,
Pag'a-pag'a yoqqan qor.
Daraxtlarning shoxiga,
Oppoq bezak taqqan qor.
Savolinga javob ber,
-Nega ranging buncha oq?
Qor jilmayib asta der:
-Eshit jajji qizaloq:
Oqlik - poklik ramzidir,
Yomonliklardan yiroq.
Dunyoni e'zgulikka,
Burkayin deb bo'ldim oq.

Nodira JUMANAZAROVA,
Toshkentdagi
256 - maktab o'quvchisi.

2004 YIL - MAYMUN YILI

Qo'y yilini kuzatib, Maymun yilini kutib olishimizga ham sanoqli kunlar qoldi. «Maymun» - arabcha so'z bo'lib, baxtli, qutlug', muborak, ijodiy ta'sir etuvchi, degan ma'nolarni anglatadi. Maymun yilida tug'ilganlar aqlli, topqir, kirishimli, ilmga nihoyatda tashna, hamisha hamma narsadan xabardor, xotirasi kuchli insonlar bo'lib, iqtisodiy jihatdan yaxshi yashashadi. Ushbu yilda dilingizdagi barcha orzu-niyatlaringiz ushalishi, yangi yil siz uchun omadli va baxtli kelishini istasangiz, «Maymun»ning ko'nglini olishga harakat qiling. Buni qarangki, G'arb mamlakatlarida Maymun yilini kutib olish uchun alohida tayyorgarlik ko'rilar ekan. Siz ham bir urinib ko'ring-a. Shunda Maymun o'zi hukmron bo'lgan 2004 yilda albatta sizning orzularingizni ro'yobga chiqaradi. Buning uchun yangi yil kechasi uyingizda Maymunga yoqadigan sharoit yaratib berishingiz lozim bo'ladi.

Qanday, deysizmi? Mana bunday!



BESHIGINGIZNI « GA KENGROQ OCHING...

Maymun uyingizga kirishi va uchun unga zarur sharoitlarni yaratib rang-barang zardan «arg'imchoqlar» osib qo'ying. Ular Maymunga Jungli o'rmonzorlarini eslatish. Uyingizning ko'rinarli yeriga mevalar to'ldirilgan katta vazani qo'yib qo'yishni unutmay. Maymunni o'zi sevib tanavvul qiladigan banan, ananas, uzum, apelsinlar bilan mehmon qiling. (Bunday mevalarni do'stlaringiz bilan birga zar qog'oz va tasmalardan yasashingiz ham mumkin).

Archamiz haqida ham unutmasligimiz lozim. Agar archa tabiiy bo'lsa, nur ustiga a'lo nur. Biroq, siz har yili bittadan «o'rmon malikasi»ni nobud qilishni istamasangiz va sun'iy archa sotib olgan bo'lsangiz, undan ham yaxshi. Shunday bo'lsa-da, tabiiy archa shoxlaridan olib kelib, ular bilan uyingizni bezating. Chunki bu yil sizning uyingizda daraxt shoxlari albatta bo'lishi kerak.

Archani bezatayotganingizda ham Maymun haqida eslang. Oddiy o'yinchoqlar bilan birga zar qog'ozga o'ralgan yong'oqlar ilib qo'ysangiz ham bo'ladi. Shoxlariga bir nechta maymun yoqtiradigan mevalardan karambola yoki fizalislarni osib qo'yish mumkin. Shuningdek, kulguli chiqishi uchun ikki-uchta haqiqiy banan osib qo'ysangiz ham bo'ladi.

Agar yaqinlaringiz yoki do'stlaringiz sizga sovg'a tayyorlamagan bo'lsalar, hech xafa bo'lmang. Yilda bir marta o'zingizga o'zingiz sovg'a xarid qiling.

Eng asosiysini yodda tuting! Yangi yilning birinchi kunini qanday nishonlasangiz, yil davomida shunday kayfiyat sizga hamroh bo'ladi.

GULYUZ tayyorladi.



jurnalining bosh muharriri Yoqutxon RAHIMOVA:

- «G'uncha» ning qahramonlari- G'unchaoy, Tariqvoy va Temirjonlar kelgusi yilga obuna bahona shahar va qishloqlardagi maktablarga kirib borishar ekan, kichikintoylar ularni qo'llarida dasta-dasta xushbo'y gullar va «G'uncha» jurnali hamda «Tong yulduzi» gazetalarini bilan kutib olishdi.

Bu bejiz emasdi. Chunki hammangizning sevimli gazetangiz «Tong yulduzi» sizning eng yaqin do'stingizga aylangan. Beg'ubor olamingiz bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

Siz hozir uningsiz olamni tasavvur qila olmaydiz. Doimo «Ertak o'qiyman», dedingiz, «Bir bor ekan, bir yo'q ekan...», deya u sizni mo'jizalar olamiga olib kirdi. «She'r o'qiydiz», dedingiz, o'zbek she'riyati



tog' yurak» deya yo'llanmalar berdi.

Siz erkalanib-erkalanib, nimaniki so'ragan bo'lsangiz, u ham sizni erkalab-erkalab hamma istagingizni bajo keltirdi. Chunki sizning talabingiz uning uchun qonun edi.

Hozir gazetangizning obro'si kundan-kunga ortib bormoqda. Uning muxlislari soni ham tobora ko'paymoqda. Agar bir dona gazetani hech qachon bir bolaning yolg'iz o'zi o'qimasligini hisobga olsak, gazeta

koshonasida mehmon bo'ldingiz. «Tomosha qo'yamiz», dedingiz, «Maktab sahna»si sizga kichik-kichik sahna asarlari taqdim etdi. «Men ham she'r yozdim» dedingiz, ustozlar sizga oq yo'l tilashdi. Maktabingiz hayotidan «Xatlar tegirmoni»ga maktublar yo'lladingiz, «Maktabim-seni maqtagum», deya e'lon qildi. «Baquvvat bo'lmoqchimiz» dedingiz, sizga «Sog' yurak-

o'quvchilarining soni ko'plab mingni tashkil qiladi. Bu «Tong yulduzi»ning bolalar hayotiga, ularning bolalik olamiga tobora chuqurroq kirib borayotganini anglatadi.

To'g'ri, hozir bolalar gazeta-jurnallariga obuna avvalgi yillarga qaraganda kamayib ketgan. Sababi, uning narxi qimmatligida, viloyat va qishloqlarga qimmat narxda yetib borayotganida. Shu bois orangizda «Tong yulduzi»ga, «G'uncha»ga obuna bo'la olmayotgan bolalar bo'lsa, ulardan gazeta, jurnaligizni ayamang. Birgalashib o'qishga, ulardagi topshiriqlarni birgalashib yechishga harakat qiling.

Mustaqil mamlakatning baxtiyor o'g'il-qizlari. Har qancha faxrlansangiz, g'ururlansangiz arzigulik Vataningiz, sizni jonidan ortiq sevib, erkalaguvchi Yurtboshingiz bor. Shu ozod yurtga, Yurtboshingizga munosib farzandlar bo'ling. Siz-hayotimiz mazmuni, xalqimizning umid-ishonchi, quvonchisiz. Vatanimizning tog'day tayanchisiz. Barkamol insonlar bo'lib voyaga yeting. Yangi yilingiz qutlug' bo'lsin, aziz bolajonlar!

Do'stlarimiz tabrigi


«GULXAN» BILAN «TONG YULDUZI» QO'L USHLASHIB...



«Gulxan» jurnalining bosh muharriri o'rinbosari Muhabbat HAMIDOVA:

- «Tong yulduzi» gazetasi «Gulxan» jurnalining maslakdosh do'sti. Chunki har ikkisinin ham ezgu niyati bitta - Vatanning ertangi kelajagi bo'lgan bolajonlarimizni barkamol inson qilib tarbiyalash. Shunday ekan, har ikkala tahririyat yelkama-yelka turib, o'zaro maslahatlashib, bolalarimizning ko'ngliga yoqadigan, ularning dil qulfini

ochadigan ajoyib maqolalar, badiiy asarlar, qiziqarli suhbatlar uyushtirib, bir-birini to'ldirib, rang-baranglashib, go'zallashib, mazmunan boyib bormoqda.



«Gulxan» - «Tong yulduzi» gazetasini o'zining raqobatchisi emas, aksincha, izlanishga undovchi do'sti deb biladi. Yangi yilda ham do'stligimiz davom etadi. «Gulxan»

bilan «Tong yulduzi» qo'l ushlashib, O'zbekistondagi har bir xonadonga kirib boradi, ularning ma'naviyatini boyitadi, deb niyat qilamiz.



Respublika bolalar gazetasi «KLASS!»da «klass» yangilik ro'y berdi-da o'ziyam. Bizning

sevimli, hurmatli ustozimiz Anna Lvovna Suxanovich «Klass» gazetasiga bosh muharrir bo'lib tayinlandilar. Ushbu gazeta va «Tong yulduzi»ning barcha yosh muxbirlari nomidan Anna Lvovnani qutlaymiz:

-Qadrli Anna Lvovna! Siz biz bilan xushmuomalalik bilan muloqotda bo'lib, bizga jurnalistikaning ilk

qadamlaridan mukammal saboq berishingiz tufayligina tahririyat bizning ikkinchi uyimizga aylangan. Bizning sevimli nashrlarimiz yangi yilda bundan ham mazmunli, qiziqarli va rangli chiqaversin!



Farhod FOZILOV,
Vika GIZATULINA,
Marina KOROCHKINA va 100dan ortiq «KLASS!»ning yosh muxbirlari.



USTOZNI QUTLAYMIZ!



Ustozim Ma'suda opa Umarovani sinfdoshlarimning barchasi, qolaversa, o'zim ham juda yaxshi ko'raman. Ustozimiz bizga bilim berish bilan birga o'z mehlrlarini ham ulashadilar. Bizni o'z farzandlaridek yaxshi ko'radilar. Darslarida o'tirganimda zerikish nima ekanligini unutib, barcha diqqatimni ular o'tayotgan darsga qarataman.

Shundan bo'lsa kerak, uyga borganimda ham, keyingi darsda ham ular bergan saboqni yodimdan chiqarmayman. Ma'suda opalar bizga sinf rahbari hamdirlar. Darsdan bo'sh vaqtimizda, tarbiyaviy soatlarda bizni odobga chaqiradilar. Darsdan orqada qolgan o'quvchilarga o'zlari yordam qo'lini cho'zadilar. O'quvchilarni sinfdoshlar oldida hech ham mulzam qilmaydilar. Aksincha, ularning sharoitlarini anglab yetgan holda yengillik yaratib beradilar. Biz barchamiz ustozimiz Ma'suda opa hamda Yoqutxon opalarga sog'lik-salomatlik tilaymiz va yangi yil bilan samimiy qutlaymiz.

Abdullo HAMIDULLAYEV,
Sobir Rahimov tumanidagi 46-maktabning
5-«A»sinf o'quvchisi.

BELORUSSIYADAN SALOM!

Mening ismim Tatyana. Dadam o'zbek, oyimlar belorus millatiga mansublar. Men O'zbekistonning Shoximardon dam olish maskanida juda ko'p marotaba bo'lganman. U yerdagi kishini o'ziga maftun etuvchi tabiati, yer yuzidagi eng sara shaharlar orasidan topilmasa kerak. Tiniq buloqlarda suzib yurgan baliqchalar, sharqirab, toshlarga o'zini urib oqayotgan suvlar hali ham ko'zimning oldidan ketmaydi. Odamlarning mehmondo'stligini aytmaydizmi? Nafaqat Shoximardondagi, balki butun O'zbekistondagi odamlarning barchasi mehmonlarni davra to'riga o'tqazib qo'yishadi. Ayniqsa, palovni juda ham yaxshi ko'raman. To'g'risi, O'zbekistonni juda ham sog'indim. Farg'onada yana mening buvijonim yashaydilar. Ularning ismi Shura. Men fursatdan foydalanib, barcha o'zbekistonlik bolalarni va albatta buvijonimni Yangi yil bayrami bilan tabriklayman. Kelgusi yil hamma uchun yaxshiliklar va ezguliklar yili bo'lsin.

Tatyana KARIMOVA, chet tillariga ixtisoslashgan
2-maktab-gimnaziyasining 6-sinf o'quvchisi.



Kirib kelayotgan yangi yilimiz «Mehr va muruvvat yili» deb nomlandi. Demak, bu yilda yanada ko'proq xayrli ishlar qilinadi, nochorlarga, yordamga muhtojlarga sahovat ko'rsatiladi. Biz esa bunday savobli ishlarni hozirdanoq boshlab yubordik. Maktabimiz «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati hamda «Kamalak» bolalar tashkiloti yetakchilari boshchiligidagi shahrimizdagi «Daydi bolalar markazi»ga borib,

XAYRCHI ISHLARNI BOSHLAB YUBORDIK

u yerdagi tengdoshlarimizga qishki kiyim-bosh ulashib keldik. Shuningdek, «Mehribonlik uyi»da tarbiyalanayotgan bolajonlar huzurida ham bo'lib, ularni yangi yil bilan qutladik, turli o'yinchoqlar va o'quv qurollari sovg'a qildik. Ular chehrasidagi bir olam quvonchni ko'rib, o'zimiz ham xursand bo'lib ketdik.

Birovga yaxshilik qilsang, o'zingga ham yaxshilik qaytadi, deganlari rost ekan. Shu kuni bir sinfdoshimizning otasi - Bahodir aka Turg'unov sinfimiz fondiga 18,000 so'm miqdorida pul o'tkazdilar. Umid qilamizki, yangi yilimizda bunday sahovatli ishlar, insonlar soni ortgandan ortaveradi.

Dilshod IMOMOV,
Poytaxtdagi 316 - tayanch maktabning 7 - «V» sinf o'quvchisi.

Bolajonlar, siz qo'g'irchoq teatrining qachon paydo bo'lganini bilasizmi? Uni o'ynatish san'ati haqida-chi? Qo'g'irchoqlarning necha xil turlari mavjud, hech qiziqib ko'rganmisiz? Bularni bilish uchun tez-tez qo'g'irchoq teatri tomoshalariga borib turishingiz, u yerda mavjud muzeylar bilan yaqindan tanishib chiqishingiz lozim. Mana, yaqinda bo'lib o'tgan turli viloyat teatrlari namoyishida ham qo'g'irchoqlar «hayoti»ga oid ko'p narsalarni bilib oldik.

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi, «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi, Teatr ijodkorlari uyushmasi tomonidan 2003 yil 9-14 dekabr kunlari «XXI asr O'zbekiston qo'g'irchoq teatr san'ati istiqboli» mavzusidagi 1-Respublika seminar kengashi o'tkazildi. Anjuman O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vaziri Bahrom Qurbonov hamda «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi Bosh direktori, Teatr ijodkorlari uyushmasi raisi Omonulla Rizayevlarning kirish so'zlari bilan ochildi. Anjumanda Farg'ona viloyat qo'g'irchoq teatri «Ming bir kecha» (Inomjon Tursunov), Andijon viloyat «Lola» qo'g'irchoq teatri «Tuhmat toshyorar» (Mansur Kuryazov), Buxoro viloyat qo'g'irchoq teatri «Dengiz tubida» (Galina Aliyeva), Jizzax viloyat qo'g'irchoq teatri «Keling, do'st bo'laylik» (Nargiza Farmonova), Surxondaryo viloyat qo'g'irchoq teatri

(Tohir Ortigov, Gulshahnoz Jabborova), Respublika qo'g'irchoq teatri «...Snova Andersen» (D.Yuldasheva) va «Shum bolaning sarguzashtlari» (Bahodir Jo'rayev, Maryam

Shermat Hayitboyev «Qo'g'irchoq teatrlari uchun mutaxassis kadrlar tayyorlashning ahvoli» nomli ma'ruzalari bilan ishtirok etishdi.

Bolalarga milliy mafkurani singdirish, ularni ezigulikka chorlash va yaxshilik bilan yomonlikning farqini anglay olishiga xizmat

qiladigan bu san'at turi o'zining dolzarbligi bilan ahamiyatlidir. Anjuman nihoyalangach, Respublika qo'g'irchoq teatri muzeyi bo'ylab sayohat uyushtirildi. Xilma-xil qo'g'irchoqlarning kelib chiqish tarixi barchani qiziqitirib qoldi.

CHODIR JAMOL TARIXI

Qo'g'irchoq teatri qachon va qayerda paydo bo'lgani aniq ma'lum

emas. Biroq, qadimda odamlar yog'och, teri, daraxt xivichlari, po'stlog'i, sopol va boshqa narsalardan hayvonlar, qushlar, jinlar, ruhlar yasashgani ma'lum. Dastlabki qo'g'irchoqlar qo'lga kiyib olinib, barmoqlar bilan yoki dastasi bilan harakatlangan. XVIII-XIX asrlarda O'zbekistonda «Chodir jamol» va «Chodir xayol» qo'g'irchoq teatri turlari mavjud bo'lgan. «Chodir jamol»da sodda-mug'ombir, boqibeg'am, maqtanchiq, ba'zida shaddod, tanti, rahmdil, ba'zida laqma, berahm, qo'rqqoq Kachal Polvonning sarguzashtlari hikoya qilinsa, «Chodir xayol»da hukmdorlar saroylaridagi bazm va boshqa manzaralar aks ettirilgan. Uni chodir tikib o'ynashgan.

Vaqt o'tib, qo'g'irchoq teatrining shakli, qo'g'irchoqlarni yasash va harakatga keltirish usullari ham o'zgarib, murakkablashgan. Sharq mamlakatlari, jumladan, Bengaliyada (Hindiston) «Putul nach» degan dastali qo'g'irchoqlar rasm bo'lgan. Bu tur Xitoyda ham keng tarqalgan va «Jantau kuyleysi» deb yuritilgan. Yava orolida (Indoneziya) sim bilan boshqariladigan qo'g'irchoq teatri rasm bo'lgan. XX asr boshida u Rossiyada qabul qilingan. Antiqa shakllar ham uchraydi. Vietnamda saqlanib kelayotgan suv qo'g'irchoq teatri bir zamonlar Ozarbayjonda urf bo'lgan kilimorasi (ya'ni, ikki gilam o'rtasida ko'rsatiladigan

Qo'g'irchoq'im - ovunchog'im

qo'g'irchoq tomoshalarini, O'zbekistonda ba'zan uchragan yotma qo'g'irchoq o'yin (ya'ni, ijrochi qo'g'irchoqlarni yotgan holda qo'llari va oyoqlari yordamida harakatga keltiradi), Eronda dastagidan tutib o'ynatiladigan katta qo'g'irchoq

teatri shu jumladandir.

Tibetda ibodatxonalarning hovlilarida sovuqda qotirilgan sariq yog'dan yasalgan qo'g'irchoq haykalchalar harakatga keltirilgan. Ukrainadagi «Vertep», Belorussiyadagi «Batleyka» shunga

ISTIQBOLI

o'xshaydi. Yuqoridan turib iplar bilan boshqarilgan teatr turi sharqda keng tarqalgan. Eronda u «Shabbozi», Hindistonda «Katxupi», Xitoyda «Syansi», o'zimizda «Chodir xayol» deb atalgan. XIV-XV asrlarda Amir Temur va temuriylar davrida bu san'at yaxshi taraqqiy etgan. Samarqand, Shahrisabz, Xitoy, Balx va boshqa shaharlarda o'tkazilgan bayramlarda kechqurunlari «Chodir xayol», kunduzlari yirtqich va uy hayvonlari, qushlar qiyofalarida har xil tomoshalar

(ya'ni, niqob teatri) ko'rsatilgan.

Chiroqlar yordamida qo'g'irchoqlarning soyalari pardaga tushirib o'ynatiladigan teatr ham qadimiy, butun Sharqda keng tarqalgan. O'rta Osiyoda soya teatri «Fonus xayol» deb atalgan...

Bolajonlar, agar qo'g'irchoqlar «hayoti»ga qiziqsangiz, qo'g'irchoq teatrlariga tez-tez borib turing. U sizning fikrlash doirangizga ijobiy ta'sir etishi shubhasiz.

Muharrama PIRMATOVA.

QO'G'IRCHOQ

TEATRI SAN'ATI

spektakllari bilan ishtirok etishdi. Har bir tomoshadan so'ng, spektaklning tahlili bo'lib o'tdi. Unda rejissyor va aktyorlardan tashqari

san'atshunoslar, talabalar qatnashib, o'z fikr va mulohazalarini bildirdi. Turli viloyatdan kelgan hamkasblar o'zlari uchun yangi-yangi amaliy va nazariy ko'nikmaga ega bo'lishdi.

Anjumanning uchinchi kunida «Milliy istiqbol g'oyasini bolalar ongiga singdirishda qo'g'irchoq teatr san'atining o'rni» mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Unda «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi Bosh direktori, Teatr ijodkorlari uyushmasi raisi, san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent Omonulla Rizayev «Qo'g'irchoq teatri vositalari bilan yosh avlodni milliy istiqbol ruhida tarbiya qilish: izlanishlar va natijalar», san'atshunoslik fanlari doktori, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi

Muxsin Qodirov «Mustaqillik davrida qo'g'irchoq teatrlari faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari», «O'zbekteatr» ijodiy-ishlab chiqarish birlashmasi boshqarma boshlig'i Eson O'rinov «Qo'g'irchoq teatrlarida repertuar masalalari», san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbiyi Hamidulla Ikromov «Qo'g'irchoq teatri rejissurasi: izlanishlar va muammolar», O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, dotsent



SUV QADRI

Ona zaminga, ona Vatanga bo'lgan muhabbat uning ne'matlariga bo'lgan mehr bilan o'lchanadi. Biz Vatanni qancha sevsak, uning tabiatini, zar tuprog'ini, hayvonot dunyosini, daryo va ko'llarini, parranda-yu darrandalarini, qo'yingchi, har bir zarrasini ko'z qorachig'imizdek asrashimiz lozim. Bilamizki, hayot uchun eng zarur to'rt manbaadan biri bu suvdur. Shuning uchun ham suvni obihayot deya ardoqlaymiz. Bir narsa ayonki, yer yuzida insoniyat ko'payib borgani sari suvga bo'lgan ehtiyoj ham orta boradi. Sayyoramiz aholisining suvga bo'lgan talabi o'tgan asrning 50-yillaridan to 2000 yilgacha yetti baravar ortdi. Yer sharining faqatgina 2,5 foizini suv tashkil etishini nazarda tutsak, bu jiddiy muammolarni keltirib chiqaradi. Buning ustiga bir kecha-kunduzda kishi boshiga

sarflanadigan suvning miqdori ikki-uch baravarga ko'tarilgan. Birgina poytaxtimizda bu ko'rsatkich 400-600 litrni, yoz oylarida esa 800-850 litrni tashkil qiladi. Ko'chalardagi ayrim suv tarmoqlarining nosozligi tufayli suvning isrof bo'lishini qanday izohlash mumkin?!

Xalqimizda, «suvga tupurma, gunoh bo'ladi», degan naql bor. Ammo bugungi kunga kelib bu naqlga ko'pchilik amal qilmay qo'ygan. Kishilar suvga tupurmasalar-da, turli axlat va chiqindilarni oqizishadi. Bir paytlar otobobolarimiz suv ichgan, non oqizib yegan ariqlarining ahvoli achinarli holga kelib qolgan. Suvga pala-partish munosabatda bo'lganimiz, uni ehtiyojdan ortiq ishlatganimiz bois Orolimiz qurib qoldi.

Bu hol bizga saboq bo'lishi kerak edi. Afsuski unday bo'lmayapti. Menimcha, tabiatga, suvga bo'lgan muhabbatni yanada kuchaytirish uchun bolalar orasida ko'proq targ'ibot ishlarini olib borishimiz lozim. Maktab, litsey, kollej va boshqa muassasalarda ekologiya o'quv soatlarini joriy etish lozim. Shu o'rinda, Toshkent Moliya instituti «Iqtisodiy geografiya va ekologiya» kafedrasida professor o'qituvchilarining amalga oshirayotgan ishlarini alohida ta'kidlab o'tmoqchiman. M.Rasulov, A.Qayumov, S.Ismoilov kabi ustozlar bu sohani o'quvchi-talabalar ongiga sodda va tushunarli so'zlar hamda amaliy mashg'ulotlar yordamida



yetkazayotganlari diqqatga sazovordir. Suvning qatnasi, oftobning zarrasi deganlaridek, har bir tomchi suvni asrashimiz ham qarz, ham farzdir. Chunki, ona tabiatni bizdan keyingi avlodlarga ham sofligicha qoldirishimiz lozim.

Oltinbek O'RINOV,
Toshkent Moliya institutining
1-kurs talabasi.

Ikki garaj oralig'ida nimjonga niholidan o'sib ulg'ayib, ulkan daraxtga aylangan chinor ro'paradagi 9 qavatli uyda yashovchilarning ko'zini quvnatar edi. Bahaybat dev singari saylat to'kib turgan chinorning ko'm-ko'k yaproqlari kunning hulkini ila sarg'ayib, sovuq shamolda yerga to'kildi. Tong saharcha hamma yoqni saranjom-sarishta qilayotgan farroshlar, ularni bir yerga to'plab, xazonidan tog' barpo etib, tashlab ketishadi.

Bir kuni maktabdan qaytayotgan bolakaylar afa shunday xazon uyumini ko'rib qolishdi. «Kelinglar, yoqib yuboramiz», dedi Bahrom. Darrov qayerdandir gugurt ham topila qoldi va quyosh nurida qurib yotgan uyum gurillab yona boshladi.



Olov soniyalarda alangalanib, katta gulxanga aylandi. Sekin-asta ikki garajlarning orasiga kirib borayotgan olovni ko'rgan bolalar qo'rqib ketdilar va «qochdik» deya, voqea joyidan qochib qoldilar. Garajlarda esa yengil avtomobillar bo'lib, allaqachon butkul yonib bo'lgandi. Ularning sho'xliklari tufayli ikki oila mashinadan ajralib qolganini bilgan sinfdoshlar o'z qilmishlaridan nihoyatda afsusda, garaj sohiblari

esa butun alamlarini chinordan olib, uni arralab tashlash bilan ovora edilar.

Ushbu ko'ngilsiz voqea shu kunlarda Toshkent shahrining Chilonzor tumanida sodir bo'ldi. Afsuski, Bahrom va unga o'xshash sho'x bolalar oramizda ko'plab topiladi. Sho'xliklari katta talofatga olib kelishini bilganlarida, bunday ishga qo'l urishmagan bo'larmidi?

Xalqimizda «O't balosidan o'zing asragin», deya bejiz aytilmaydi. Qadimda otobobolarimiz ushbu falokatdan saqlaydigan tumorlar ham olib yurishgan ekan. Olov - tilsiz yov. U hech kimni ayamaydi.

Afsuski, bunday yong'inlar go'zal shahrimiz Toshkentda ham tez-tez bo'lib turadi.

7 yoshli Mansurjon Chilonzor tumanida istiqomat qiladi. Uning gugurt bilan o'ynashi natijasida nafaqat o'zlarining xonadoni, balki uy tomi orqali olov tezlik bilan o'tishi natijasida qo'shni xonadonning ham uy jihozlari yonib ketdi. Yaxshiyamki, ushbu yong'inida hech kim tan jarohati olmadi. Ammo Mansurning «sho'xligi» ota-onasiga juda qimmatga tushdi.

Mirzo Ulug'bek tumanida istiqomat qilayotgan Yelena ismli ayolning beparvoligi juda qimmatga tushdi. Nosoz elektr simlaridan chiqqan yong'in bir necha daqiqalarda uy va unda yashovchilarni sarosimaga solib qo'ydi. Jiddiy jarohat olgan Dima va uning 5 yoshli akasi Oleg kuyganlar markazida halok bo'ldilar. Endigina 8 yoshga qadam qo'ygan Yulya esa malakali shifokorlarning nazorati ostida uzoq vaqt davolanib,

Yong'in xavfsizligi oyligi

uyiga qaytdi.

Bunday dahshatli voqealar sodir bo'lmasligi va ularning oldini olish borasida yong'in o'chirish xizmati xodimlari poytaxtimizdagi barcha bog'cha bolalari va o'quv muassasalarida turli tadbirlar o'tkazib kelishmoqda. Uchrashuvlar bolalar uchun qiziqarli o'yin, viktorinalar bilan boshlanib, «Olov-do'st, olov-dushman» kabi mavzularda yoziladigan bayonlar bilan yakunlanadi. Eng faol ishtirokchilar inspektorlar tomonidan esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadilar.

Aziz bolajonlar! Mana bir necha kunlardan keyin o'lkamizga YANGI YIL kirib keladi. Barchangiz archa atrofida shodu-xurram o'ynaysiz. Ammo unutmang, turli xil yonuvchan o'yinchoqlardan, ayniqsa, paqildoqlardan foydalanganda ehtiyot bo'ling. Ushbu archa bayramlarida bizning xodimlarimiz ham faol ishtirok etadilar. Har bir tadbirga mas'ul xodimlar birlashtiriladi. Shunday bo'lsa-da, siz ham hushyorlikni unutmang.

Avvalambor uyingizdan hech qachon yong'in chiqmasin. Bunday noxush holat sodir bo'lganda esa albatta kattalarni yordamga chaqiring. Tezlik bilan telefon orqali «01» ga xabar bering. Shoshilmasdan manzilingizni aniq va ravshan aytib berishga harakat qiling. Shunday qilsangiz, o'zingiz va yaqinlaringizni ofat balosidan qutqarishga o'z hissangizni qo'shgan bo'lasiz.

Muslima RAHIMOVA,
HBB yong'in Xavfsizligi
Boshqarmasi muhandisi,
ichki xizmat leytenant.

ORZULARIM YOZAMAN

Men yozaman daryoday toshib,
Orzularim so'nmasin, deya.
She'rlarimni ko'ksingiz bosib,
Uchib ketib qolmasin, deya.
Orzuimda buyuk kelajak,
O'ylarimday sof va beg'ubor.
Dimog'imga ufq urdi chechak,
Go'yo mayin, nafis oppoq qor.
Men yozaman, go'yo she'rimda,
Kulib turar mening gul yuzim.
Iskonaman, bir kun she'riyat,
Ismonida porlar yulduzim.



Gulchehra ALIMOVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
114 - maktabning 8 - «G» sinf o'quvchisi.

KO'Z OCHIB KO'RGANIM

Ko'z ochib ko'rganim - mahallam, uyim,
Va tonglar ohista chorlagan bog'lar.
Yurakdan chiqarib kuylagan kuyim,
Unga muhabbatim kimlar izohlar?..
Yetti qo'ni-qo'shni har bir bolaga,
Biri ona bo'lsa, biri otadir.
Quvonsak quvonib, kulsak suyunib,
Og'risak, azobni birga tortadir.
Mahallam sarishta, obod bo'lsin deb,
Xayrli ishlarga ulush qo'shamiz.
Dil mehvari ona Vatanga atab,
Alyorlar aytamiz, quvnab jo'shamiz.

Dilafroz G'ULOMOVA,
Toshkent viloyati, Bo'ka tumani.

SENGA SUYANCH BO'LMOQ SHARAFDIR VATAN!

Umr o'tar ekan daryoday oqib,
Panoh izlar ekan har tong yulduzlar.
Zarrin nurlarini sochganda quyosh,
Oyni sog'inarkan hatto kunduzlar.
Ularga o'xshaydi mening ham umrim,
Niholday talpinar ko'kka bo'y cho'zib.
Bugun orzularim cheksizligidan,
Hayqirgim keladi dunyoni buzib.
Orzular barisi, barisi menda,
Quvonchim, shiddatim olayotir tan.
Men qancha yuksakka intilsam har dam,
Senga suyanch bo'lmoq sharaftir Vatan!



Feruza ISLOMOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi
4 - o'rtta maktabning 9 - «B» sinf o'quvchisi.



Aziz bolajonlar, e'tibor berayotgan bo'lsangiz, «Kelajak qanotlari» rukni ostida sportga yoshlikdanoq mehr qo'ygan tengdoshlaringiz haqida maqola va lavhalar berib boryapmiz. Zero, ularning har biri kelajagimiz, ertangi kunimizga qanot bo'la oladigan, yurtimiz dovruq'ini yuksaklarga ko'taradigan yoshlardir.

Bugun ham ana shunday umidli sportchi tengdoshlaringiz haqida hikoya qilishni maqsad qildik. Shoyad, ularga ergashib, havas qilib, sizning qalbingizda ham sportga mehr uyg'onsa...

Mardon Sodiqov - poytaxtimizdagi 112 - maktabning 10 - «A» sinfida o'qiydi. Shuningdek, 7

yoshidan buyon

«Dinamo»

sport

maktabida

ustoz Alisher aka murabbiyligida boks bilan muntazam shug'ullanib keladi. Astoydil qilingan mehnat o'z samarasini bermay qo'ymas ekan. Mardonning ham tinimsiz mehnatlari o'z samarasini bera boshladi. Ko'plab katta musobaqalarda ishtirok etib, g'alaba nashidasini surish baxtiga muyassar bo'ldi. U shu yilning 26 sentabrida bo'lib o'tgan Rufat Risqiyev nomidagi boks turnirida ham g'oliblik shoxsupasini egalladi.

Mardonning do'stlari juda ko'p.

Alisher Nikolayevich, Navro'zov Roman Ravilyevichlarni o'z

INTILGANGA TOLE YOR



Kelajak qanotlari

-Oqgul, bolaligingizni sog'inasizmi?

-Albatta sog'inaman, dunyoda biror odam yo'qki, bolaligini sog'inmasa...

-Sportga havas ham bolalikdan boshlangan bo'lsa kerak-a?

-Ha, men 7-8 yoshimdanoq uyimiz yaqinidagi kortga borganman. Atigi ikki haftagina tennis bilan shug'ullandim-da, negadir yoqtirmay qoldim. So'ng, oradan uch yil o'tgach, 10 yoshimda yana kortga qaytdim. Bu borada biroz

oshiradiki, aslo to'sqinlik qilmaydi. Chunki kitoblar inson ruhini qudratli qiladi. Kuchli ruh esa jismoniy baquvvatlikka zamin yaratadi.

-Oilangizdagilar sportga bo'lgan muhabbatingizni qanday baholashadi?

-Oilamdagilar meni bu borada doim qo'llab-quvvatlashadi.

-Siz taniqli yozuvchi Parda Tursunning nabirasi ekansiz-a?

-Men asli ijodkorlar oilasidanman.

ustoz deb biladi. Ularning har bir yo'riqlarini diqqat bilan tinglaydi, harakatlarini sinchiklab kuzatadi, boks sirlarini iker-chikirlarigacha o'rganib olishga intiladi. Uyda esa unga otasi murabbiylik qiladi. Mardon birorta musobaqada ishtirok etgudek bo'lsa, dadasi undan ko'ra ko'proq qayg'urishini juda yaxshi his qiladi. Shuning uchun ham ustozlari ishonchini oqlash, dadasining kelgusida Mardonning mohir bokschi bo'lganini ko'rishdek orzusini ushaltirish uchun ham astoydil harakat qiladi. Har qanday sharoitda ham olg'a intilishni, «Intilganga tole yor», degan naqlni o'ziga shior qilib olgan Mardonning oldiga qo'ygan maqsadlari mo'l: 2008 yilda Xitoyda o'tkazilishi rejalashtirilayotgan yirik chempionatda ishtirok etib, g'olib chiqishni, uning sharafiga yurtimiz bayrog'i baland xilpirashini orzulaydi...

Biz ham uning orzulari ijobatini tilab, safimizda Mardondek mardona sportchilarimiz ko'paysin, deya niyat qilamiz.

Dilafruz XUDOYBERDIYEVA,
Poytaxtdagi 112 - maktabning
11 - «V» sinf o'quvchisi.

Oqgul Omonmurodova mashhur tennischilardan Iroda To'laganovaning izdoshi. U Irodadek mohir, shuningdek, Petra Mandulladek beqiyos tennischilarni bo'lishni orzulaydi:

tuta olishdek qudratli kuchni sezaman. Meni g'alaba bilan qaytishimni kutayotgan muxlislarim ishonchini oqlayman.

-«Toshkent Open-2003» xalqaro ayollar turnirining 1-raqamli

qatnashchisi Petra Mandula bilan kortda uchrashganingizdagi holatingizni ayta olasizmi?

-Ha, vengriyalik mohir raketka ustasi Petra Mandulla bu turnirda menga yagona raqib bo'ldi.

U Jahon reytingida 41-o'rinda bo'lsa, men endigina 351-o'rinda turaman. Petra haqida bir og'izgina so'z aylishim mumkinki, uning kortdagi harakatlari beqiyos...

-G'alabalarangizdan quvonib, sizdek bo'lishga intilib yashayotgan o'zbek bolalariga aytar gaplaringiz bormi?

-Mening aziz singillarim, ukajonlarim sport bilan muntazam shug'ullansangiz. Sog'lom bo'lasiz. O'zbekistonning buyuk kelajagini esa faqat sog'lom va barkamol avlod yaratadi.

-Tilaklaringiz va samimiy suhbatangiz uchun tashakkur.

Ma'mura MADRAHIMOVA
suhbatlashdi.

«BOLALIGIMNI JUDA SOG'INAMAN»

ulg'ayishim meni mehnatlardan qochmaslikka, mashaqqatlardan cho'chimaslikka o'rgatgan bo'lsa, ajabmas. Bilasiz, sport mehnati anchagina og'ir bo'ladi. Bu mashaqqatlarni yengish uchun inson qat'iy irodali bo'lishi kerak. Dastlab kortga buvim Noila Pardayeva bilan kelganimni hali-hanuz eslayman. O'shanda birinchi murabbiyim Denis Shohmamedov qalbimda sportning bu turiga nisbatan mehr uyg'otgandi.

-Murabbiy mehnatlarini qanday baholaysiz?

-Jahondagi barcha sport yulduzlarining ham o'z murabbiysi bor. Murabbiy sportchini tarbiyalaydi, unda o'ziga nisbatan ishonchni kuchaytiradi, g'alaba sari ruhlantiradi. Hozirgi kundagi murabbiyim Shamil Chebotarayev aynan ana shunday inson.

-Oqgul, kitob o'qishni ham yaxshi ko'rar ekansiz. Bu qiziqish sportga bo'lgan mehringizga to'sqinlik qilmaydimi?

-Men hozir ham badiiy kitoblarni jonu-dilim bilan o'qiyman, lekin bu holat meni sportga bo'lgan mehrimni oshirsa-

Bobomning «O'qituvchi» romanlarini bolaligimda sevib o'qib chiqqanman.



Uydagilardan bobom haqida ko'p voqealarni eshitganman. Ular bilan doimo faxrlanib yuraman. Hozircha oilamizda yagona sportchi o'zim hisoblanaman. Ukam ham sport bilan o'zi uchun shug'ullanib turadi.

-Har gal kortda raqibingiz bilan uchrashganda ko'nglingizdan nimalar kechadi?

-Men juda ko'p mamlakatlarda musobaqalarda ishtirok etmoqdaman. Har gal olis yurtlarda bo'lganimda ko'nglimga Vatan mehri taskin berib turadi. Shunda raqibim oldida o'zimni



JAVLON DINYO KETADI


Qarshi shahridagi 1 - gimnaziyaning 9 - sinf o'quvchisi Javlon Mahmudovning nomi bugungi kunda faqat respublikamizda emas, chet ellik ishqibozlarga ham yaxshi tanish. Haqiqiy sportchiga xos bo'lgan barcha fazilatlar unda mujassamlashgan - qat'iy iroda, tinimsiz mehnat, mashq, g'alabalardan esankiramaslik, hamisha olg'a intilish. Shuning uchun ham uning ko'ksini oltin medallar shodasi bezab turibdi.

O'tgan yili iyul oyida Germaniyaning Drezden shahrida bo'lib o'tgan 18 yoshgacha bo'lgan o'smirlar o'rtasidagi karate bo'yicha jahon kubogi bellashuvlarida dunyoning 41 mamlakatidan 1200 nafar yosh sportchi qatnashgandi. Ular orasida qarshilik Javlon Mahmudov ham bor edi. U Shvetsiya, Malayziya, Rossiya, Eron va germaniyalik tengdoshlarini mag'lubiyatga uchratib, jahon kubogini qo'lga kiritdi.

Bu yil Germaniyaning Xalkida shahrida bo'lib o'tgan bolalar va o'smirlar o'rtasidagi jahon kubogi uchun bo'lgan musobaqalarda ham Vatanimiz sharafiga himoya qilgan Javlon va uning do'stlari umumjamoa hisobida 4-o'rinni egallashdi. Dunyoning 30 dan ziyod mamlakatidan yosh sportchilar qatnashgan nufuzli bahslarda ham yurtlarimiz Javlon Mahmudov, Nodir Xo'jayev, Doston Turg'unov va Feruzbek To'rayevlar oltin medallarni qo'lga kiritishdi. Ularning bu muvaffaqiyatlari O'zbekiston Karate Federatsiyasi Prezidenti Nurxon Nafasovni hamda ustozlarini haqli ravishda faxrlantirdi.

Ha, bolalar sportiga berilayotgan alohida e'tibor tufayli farzandlarimiz dunyo kezmoqdalar. Javlon ham yurtimiz bayrog'ini o'zga yurtlarda baland ko'tarayotgan ana shunday yoshlardan biri.

Zamira TO'LAGANOVA.



Qadim-qadim zamonda Qoratog' etagiga tutash bir o'lka bor ekan. Tuprog' i unumdor, yerlari serhosil, suvlari zilol. Bag'rda shunday sehrli tilsimlar yashiringan ekanki, eshitgan kishi hangu-mang bo'lib qolarkan. Tog'ning toshlari quyosh ufqdan bosh ko'tarayotganida ham, ufq sari bosh qo'yayotganida ham qop-qora rangda ko'zga tashlangani bois unga Qoratog' deb nom berilgan ekan. Yovning bu o'lkaqa ushbu tog' osha kirib kelishi amri-mahol bo'lib, xalqi osoyishta umr kechirar, to'rt taraf doimo bolajonlarning

piyola un solib, uni kovlay boshlabdi. Uning rangi qizg'ishroq tusga kiribdi. Xojar momoning ko'zlari ko'rmasa ham tasmollab bilibdi. Ikki kosa qaynagan suvga 2 piyolacha qand lavlagining shirasini qo'shibdi. Tayyor aralashmani ham qozonga solib, uni yaxshilab aralashtirib, kuymasligi uchun tez-tez kovlay boshlabdi. Tayyor bo'lganidan so'ng idishlarga solib sovutibdi. Xuddi shu paytda malika Zulfizar Xojar

«Parvarda yeganmisiz?» tanloviga

TO'Y HOLVA TAYYORLADIM

Barcha shirinliklar ezgu niyatlar bilan tayyorlanadi. Ayniqsa, to'y holvasini tayyorlash jarayoni meni juda qiziqtirib qo'ydi. Qadim-qadimdan sandiqchilar, temirchilar, mahsido'zlar, kashtado'zlar mahallalari kabi qandolatchilar mahallasi ham bo'lgan va bu noyob hunarlar nasldan-naslga o'tib kelmoqda. Ushbu hunarlarni sizubiz ham o'rganib olsak, ayni muddao bo'lardi. Shirinliklar tayyorlashga ishtiyoqim balandligi uchun oyijonim bilan birgalikda to'y holva tayyorladik. U quyidagicha tayyorlanarkan: alohida bir idishga 1 kilogramm shakar va yarim litr suvdan qayla tayyorlanadi. Ushbu qayla 15-20 daqiqa qaynatiladi.

Unga bir chimdim limon kislotasi solinadi va sovutishga olib qo'yiladi. Boshqa bir idishda esa 2 dona tuxum oqi ko'pirtiriladi. 10 gramm yetmak ildizidan ham alohida qaynatma tayyorlanadi va bu qaynatma tuxum oqiga sekin quyiladi. Ko'pirtirishni to'xtatmagan holda yana 7-8 daqiqa davom ettiramiz. Idishdagi ko'pik barqaror turishi lozim. Bu ko'pikni suviga sovutishga qo'yilgan qaylamizni quyamiz va yana ko'pirtiraveramiz. Oyijonim ishni davom ettirgunlaricha men bajonidil masalliqni ko'pirtira boshladim, ular esa: qozonga taxminan 130 gramm o'simlik yog'idani quyib, qizdirdilar. Uning ustiga 85 gr. qo'y yog'i solib eritdilar. Qizib turgan yoqqa 50 gr. kunjut va 1 piyola to'ldirib un solgach, tez-tez aralashtirib turdilar. Rangi o'rtacha to'qlikdagi jigarrang tusga kelguncha va o'ziga xos shirin hid chiqarguncha qovurib, so'ngra sovutishga qo'yidilar. Unga men ko'pirtirib o'tirgan ko'pikni qo'shib, bir xil bo'lguncha aralashtirdilar. Ushbu aralashmani oldindan tayyorlab qo'yilgan qoliplarga quyib chiqqach, endi ustini sen bezatasan, dedilar. Sevinchim ichimga sig'may, qoliplardagi tayyor shirinlik ustiga oyim aytganidek mayiz, o'rik mag'izlarini gul singari terib, sedana sepdim. To'y holva tayyorlashda mening ham hissam borligidan quvondim.

Saida JO'RAYEVA,


Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi
91-maktabning 6- «D» sinf o'quvchisi.

HOLVAYTAR MOMOLARNING TAOMI

shodon qiyqiriqlariga to'lib turarkan. Bir kuni mamlakat xoqoni odil podshoh el-ulusga qarata shunday farmon beribdi: «Mening yakka-yu yolg'iz qizim Zulfizar erta tongda gullar sayliga chiqadi. Sayldan qaytayotib, jamiki ulamolarimning kasb-hunarlarini, qo'llaridan qanday ish kelishini birma-bir tomosha qilmoqchi. O'zining noyob kasbi bilan, hali dunyoda nomi zikr etilmagan mo'jizani yaratgan kishiga qizimning ajoyib tuhfasi bor. Sizlarga ertaga kun og'ishigacha bo'lgan vaqtni muhlat beraman. Hamma bugundan ishga kirishsin», debdi. Zulfizar malikaning ta'rifi tillarda doston, uning oqilaligi, odobu-husni barchani lol qoldirarkan. O'lkada bo'lib turadigan xalq sayillari, turli xil bellashuvlar, shodiyonalardan biron kishi chetda qolmas, hech kim bir-birini xafa qilmas ekan. Ahillikning boisi, yoshlari ulug' kishilar barcha ishning boshida turishar, yoshlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishar, shu sababli xonadonlardan hamisha qut-baraka arimasdi. Shunday nuroniy kishilardan biri yoshi yetmishni qoralab qolgan Xojar ismli momoni barcha kekxa-yu yosh nihoyatda qadrlar, uning ko'zlari ojiz bo'lib, o'zi yolg'iz yashardi. Podshohning farmoni Xojar momoning ham qulog'iga yetibdi. U chuqur o'yga tolibdi, yotib uyqusi kelmabdi. «Agar ko'zlarim ojiz bo'lmaganda edi, Zulfizardek qalbi pok malikaning sepi uchun shunday bir kashtali palak tikardim, jilosi olamni yoritardi. Hay, mayli, tong otishiga oz qoldi chog'i, yaxshisi biror taom tayyorlay, tag'in shoh qizi uyim ostonasidan ranjib qaytmasin». Shu fikrlarni ko'nglidan o'tkazgan momo sekin o'rnidan qo'zg'olibdi. Paypaslanib o'choq boshiga boribdi. Qozonga o't qalab, obdon qizigandan so'ng, bir cho'mich yog' solibdi. Qizigan yog'ning ustiga bir

momoning ostonasiga qadam qo'yayotgan ekan, ichkaridan momoning ovozi eshitilibdi. «Holvaytarim, ranging qanday, ko'zim ko'rmas, malikaga yoqasanmi? Totib ko'rib maqtamasa yo tosh bo'lib qotasanmi?» Shu payt taom tilga kirib: Aslo qo'rqma momojonim, malikani men aytaman. Bizga hamroh farishtalar. Malikaning qo'lidagi xnasining rangidayman. Sof mehning-la yetilganman, qolishmayman hech taomdan», debdi. Bu so'zlarni eshitib Zulfizar malika ham, uning atrofidagi mulozimlar ham hangu-mang bo'lib qolishibdi. Ostona hatlab o'tgan malika Xojar momoga ta'zim qilib, idishdagi taomga qarabdi, haqiqatan ham qo'llaridagi xna rangidagi nafis tovlanib turgan bu taom uning ishtahasini qo'zg'otibdi. Taomdan totib ko'rib, umrida bunday totli taomni hali yeb ko'rmaganini aytibdi. Ko'zlari ojiz bo'lsa-da, yuragi mehrga to'la pazanda onaxonning yaratgan mo'jizasiga tan beribdi. «Ey momo, buning siri nimada», deb so'rabdi. «Har qanday kasb-hunarni uddalash siri faqat odamning ko'zi, qo'l-oyoqlarida emas, balki qalb harorati-la yo'g'rilgan mehnatidir», deb javob beribdi Xojar momo. Shundan buyon Holvaytar taomi farishtali momolarning taomi hisoblanarkan. Holvaytar so'zi fors tilidan olingan bo'lib, ho'l holva degan ma'noni anglatadi.

Mohinur HAYDAROVA,
Poytaxtdagi 165-maktabning
5-sinf o'quvchisi.



QISH BOBONING IMTIHONI

Aziz bolajonlar, yodingizda bo'lsa, fevral oyining so'nggi kunlarida QISH bobongiz o'z o'rnini BAHOROYGA bo'shata turib, sizlarga bir talay topshiriqlar berib, ayrim yomon illatlaringizdan butunlay voz kechishni maslahat bergan.

Siz Qish boboning aytganlariga amal qilib, bahor, yoz va kuz fasllarini shodon o'tkazibsiz. Peshonangizda reza-reza ter bilan tinmay mehnat qilib, o'zingizdagi barcha yomon illatlarga qarshi chidam bilan kurashibsiz. Bilasizmi, oppoq bulutlarning ustida, oppoq yolli otida uchib kelgan QISH bobongiz bugun sizlarni birma-bir imtihon qilmoqchi. Biz tayyormiz deysizmi? Eshitaylik-chi, bu imtihon qanday yakunlanarkin...

Aziz bolajonlar ketar chog'imda,
Xayrlasha turib bulut tog'imda.
Oppoq yolli otim ustida edim,
Talay yumushlarni bajaring, dedim.

Kim qanday ter to'kdi, imtihon qilay,
Aqli bolaning boshini silay.
Eshitdim bahor, yoz, kuzdan o'tibsiz,
Qanday soz, qish faslin rosa kutibsiz.

Va'daga binoan to'qqiz oy o'tib,
Samodan siz uchun qor maktub bitib.
Shoshib kelayapman huzuringizga,
Qulog'im tutaman uzringizga.

Tolibning ishidan ko'nglim tog' bo'ldi,
«5» baha zo'rligin u endi bildi.
O'qibdi berilib barcha kitobin,
Unutmas yo'lida porlar ofitobin.

Nozima arazin ortiga tashlab,
Xarxasha o'rniga shodlikni boshlab.
Oqila qiz ekan, qarang o'zingiz,
Yerda qoldirmaydi biron so'zingiz.

Halima chinniday idishlar yuvar,
Kashtalar tikadi u bo'lib chevar.
Xurshida singari olqishlar oldi,
Aytgan gaplarimga u quloq soldi.

Sardorbek sinfining bo'ldi g'ururi,
Qalbini band etgan shiddat sururi.
Shaxdam qadam tashlar kiyimi toza,
Kir-chirlar, mikroblar qochgani soz-a.

Davrada ko'rinmas Adiba qizim,
Qish bobo mana men shu yerda o'zim.
Jajji singilchamni xafa qilmadim,
Kechiring, o'shanda axir bilmadim.



Qizg'anish odatin Barno-tashlabdi,
Lekin Saodat-chi, boshin qashlabdi.
Do'stlari oldida izza bo'libdi,
Sahiylik fazilat axir bilibdi.

Kim u chetda qolgan, beri kel, Omon,
Bobojon, dangasa bo'lganim yomon.
Uyalib qolgandim o'zim-o'zimdandim,
Illatni tashladim qaytmay so'zimdandim.

Yerdagi kiyimlar ko'rinmas ko'zga,
Bu o'sha Sorami yoki qiz o'zga?
Soraman! G'ayratim qo'lga olganman,
Endi yalqovlik yo'q, quvib solganman.

Toychoq bolalarim, gul lolalarim,
Barchangiz bebaho zar tolalarim.
Qalbim quvonchlarga limmo-lim to'ldi,
Borliqqa qor to'shay qish fasli bo'ldi.

Qorbo'ron o'ynaysiz shodlanib kunda,
Qorbobo, qorgizni chorladim bunda.
Zo'r sovg'a ulashar mana ko'rasiz,
Archa bayramida o'ynab-kulasiz.

Qish boboning gaplarini
Jamila ERDONOVA yozib oldi.

YANGI YILINGIZ BILAN!

Yangi yil har bir bolaning eng sevimli bayramidir. Bu kun esda qolarli daqiqalarga boy bo'lishini hamma istasa kerak. Mana, yangi 2004 yil ham ostonamizda turibdi. Uni qanday kutib olish va qay tarzda o'tkazish esa har kimning o'ziga bog'liq. Bilasizki, yangi yilda hamma archa bezatadi. Archa bezatish va uning tagiga sovg'alar qo'yish odati qachon va qayerdan kelib chiqqan? Shu haqda bilishni xohlaysizmi?



YANGI YIL BOSHIDA MAMLAKATLARDA QANDAY NISHONLANADI?

Yangi yilni qanday kutib olish har qaysi mamlakatda turlicha bo'ladi.

Masalan, **Lotin Amerikasida** katta ko'chada karnavallar, teatrlashtirilgan tomoshalar o'tkaziladi.

Amerikada bu bayram dabdabali va hashamatli bo'ladi. Bu yerdagi odamlar bir-birlariga qimmatbaho sovg'alar berishadi. Bolalar esa «Santa Klaus»dan sovg'alar kutishadi.

Rossianing har biir shahrida bu bayramni o'zgacha kayfiyat bilan kutib olishadi. Bu yerda ham ko'chalarda rangli chiroqlar yoqilib, odamlar turli tomoshalar ko'rsatishadi. Sirk tomoshalari, ansambllar kuylari ostida rossiyaliklar shodon raqsga tushishadi.


Bolgariyaliklar oila a'zolari bilan birga kutishga odatlanishgan. Ular, yasatilgan archa atrofiga yig'ilib, oilaning eng kichik a'zosi qo'shiqlar aytadi, kattalar esa uni turli shirinliklar bilan mehmon qilishadi. Bundan



ham qizig'i, soat 12 ga bong urganda, hamma-yoqda chiroq o'chadi. Bu yangi yil hazili albatta. 12 dan so'ng, uy bekasi «syurprizlar»ga boy pirogini kesa boshlaydi. «Syurprizli» pirogni yegan odamlar terapevt va tish doktorining eshigi oldiga yig'ilishlari tayin. Chunki bu pirogga tangalar (boy bo'lish uchun) va atirgullarning tayoqchalari (oilada sevgi bo'lishi uchun) qo'shib pishiriladi.

Italiyada esa, derazalardan turli keraksiz narsalarni uloqtirishadi. Shu paytda, derazalar atigidagi yurgan odamlarning ahvolini tasavvur qiling-a! Shuning uchun ham Yangi yil kirish arafasida italiyaliklar uylarida o'tirishadi. Soat 10 dan so'ng ko'chaga chiqishadi va bir-birlarini tabriklashadi.

Aziz bolalar, Yangi yil kechasida soat 12 bo'lishini kutaverib, zerikib qolmasligingiz uchun sizlarga turli o'yinlarni tavsiya qilamiz:



ARCHA YASATISH QACHON PAYDO BO'LGAN?

Archaning tagiga sovg'a qo'yish qadimdan urf bo'lgan. Bunga bir misol: Misr piramidalarining tagidan arxeologlar turli vazalar topishadi. Bu vazalar salkam 3000 yoshda ekan. Ularga quyidagi so'zlar bitilgan ekan: «Kirib kelayotgan yilingiz yaxshiliklarga to'la bo'lsin!» Bundan tashqari, yana yangi yil tilaklari yozilgan bir nechta bronzadan yasalgan maymunlarning haykalchalari, tosh haykalchalar topilgan. Yana boshqa bir taxmin bor. Unga ko'ra, sovg'alar berish va archa yasatish Iisus tug'ilgan yildan boshlab urfga kirgan ekan. Ya'ni, odamlar Iisusga oltindan yasalgan turli buyumlar sovg'a qilinishidan boshlangan. Yangi yil arafasida daraxt



shoxlariga turli

narsalar ilishgan.

Keyinchalik odamlar bezash uchun archani tanlashgan. Turli mamlakatlarda sovg'a qilish urflari turlicha. Masalan, qadim Rim aholisi yangi yilning birinchi kuni yaqin qarindoshlari, ota-onalariga, tanishlariga turli meva va asal sovg'a qilishgan. Keyinchalik bu tabiiy sovg'alarning o'rni qimmatbaho tosh va oltindan yasalgan buyumlar egallagan. Yaponiyada esa xrizantemalarni tabriklash taqiqlangan. Fransiya ayollariga ko'proq atir sovg'a qilishadi. Ayollar atirlarni faqat o'zlariga yaqin kishilaridan olishgan.

QOR PARCHANI QOSHIQDA OLIB YURISH

Bu o'yinda ikki kishi qatnashadi. Uning og'ziga qoshiqqa solingan paxtadan yasalgan yashil qor parchalari solinadi. Ishora bo'yicha bolalar archaning ikki tomonidan yurishadi, chunki qoshiqdagi qor parchani tushirib yuborsa, o'sha g'olib hisoblanadi.

SHILLIQ

Bu o'yinda bir nechta shishirilgan sharlar kerak bo'ladi. Sharlar soni ishtirok etayotgan bolalar sonidan bitta kam bo'lishi kerak. Bolalar uzun bo'lib turishadi va ularning orasiga bittadan shar qo'yiladi. O'yinning sharti - oradagi sharlarni tushirib yubormaslik va qo'l bilan tegmaslik, uni yorib yubormaslik. Faqat sharlarni bir-birlariga mahkam yopishgan holda ushlab, yurish kerak bo'ladi. Agar kim sharni tushirib yoki yorib yuborsa, u o'yindan chiqadi. Bu o'yinni ikki guruh bo'lib o'ynasa ham bo'ladi.

Dilafruz YUNUSOVA, Ozoda TURSUNBOYEVA
tayyorlashdi.

«TIPRATIKAN»

6 dona tuxumni sirli idishga chaqib, yaxshilab ko'pirtirasiz. Unga 2 piyola shakar, 1 choy qoshiqda iste'mol sodasi, 1 piyola qatiq qo'shib, yana aralashtirasiz. Hosil bo'lgan aralashmangizga 3 piyola un qo'shib, suyuqroq xamir qorasiz. Gaz patnisiga biroz un sepib, xamirni gazning pastki qavatiga, ustki qavatiga olib pishirasiz. Ustki qism kulchaning pishgan-cho'pi yordamida Tayyor kulchani yordamida dumaloq Chetlaridan chiqqan qoldiqlarini esa yaxshilab maydalab, krem surtilgan kulchalaringizning chetlariga yopishtirib chiqasiz va kulchalarning ustini bezatasiz.

Bunday «tipratikan»lar tayyorlash uchun quyidagi masalliklar kerak bo'ladi: 6 dona tuxum, 2 piyola shakar, 1 piyola qatiq, 1 choy qoshiq iste'mol sodasi, 3 piyola un.

Krem tayyorlash uchun 1 banka quyultirilgan sut va 200 gramm saryog' kerak bo'ladi.



quyib chiqasiz. Dastlab patnisni xamiringiz ko'tarilgach esa o'rtacha olovda biroz qizargach, pishmaganligini gugurt tekshirib ko'rasiz. sovutasiz. Stakan shakllar kesib olasiz.

Bayram dasturxoniga

To'kin dasturxon atrofida yangi yil bayramini nishonlashimizga ham sanoqli kunlar qoldi. Bayram dasturxonini esa shirinliklarsiz, turli salatlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. To'g'ri, bayram arafasida do'konlar turli noz-ne'matlarga, shirinliklarga to'lib ketadi. Lekin uyda o'z qo'lingiz bilan tayyorlagan shirinliklar bilan dasturxon bezashga ne yetsin?!

Shu maqsadda qizlarimizga «Tipratikan» nomli shirin kulcha va «Turpli salat» tayyorlash haqida maslahatlar bermoqchimiz.

TURPLI SALAT

Bunday salat tayyorlash uchun artilgan turpni somoncha shaklida to'g'rab, ustiga qaynoq suv solib qo'yasiz. Oradan besh daqiqa o'tgach, suvni to'kib tashlaysiz. Qaynatilgan go'shtni ham xuddi shunday shaklda to'g'raysiz. Mayda to'g'ralgan piyozni yog'da qovurib, piyozdog'i tayyorlaysiz. Hammasini aralashtirib, likopchaga solasiz. Ustidan biroz mayonez yoki qaymoq quyib, pishgan tuxumni to'rtga bo'lib, bezatasiz va dasturxonga tortasiz.

Buning uchun 2 dona o'rtacha kattalikdagi turp, 200 gramm yog'sizroq go'sht, 100 grammcha mayonez yoki qaymoq, piyoz hamda ta'bga ko'ra tuz kerak bo'ladi.

NARGIZA tayyorladi.

QORBOBODAN MINNATDORMAN!

Har yili yangi yil arafasida bundan ikki yil avval bo'lib o'tgan bir voqea yodingga tushaveradi:

Qo'shnimizning juda bahaybat iti bo'lardi. Uning haybatidan nafaqat bolalar, kattalar ham hayiqishardi. O'zi ham juda g'alati edi-da. Eshigi tagidan o'tgan mashinalarning ortidan quvib, o'tgan-ketganga vovullayverardi. Odamlar undan qo'rqib, uzoqroq bo'lsa ham boshqa ko'chadan yurishga majbur bo'lishardi. Xuddi g'ajab tashlagudek vajohat bilan tashlansa-da, hali biron kimsani tishlab olganini eshitmagandik. Shuning uchun ham hech kim uning egasiga e'tiroz bildirolmasdi...

Bir kuni jangi singlim hamni yangi yil bayramiga olib bordim. Boshqa yo'ldan yurishning iloji bo'lmagani uchun biz shu ko'chadan yurishga majbur edik. Ketayotganimizda kuchuk ko'rindi, xursand bo'lib o'tib oldik. Lekin uyga qaytayotganimizda u yo'limizni to'sib chiqib qolsa bo'ladimi?! Qorbobo sovg'a qilgan shirinliklarni yeb kelayotgan singlimga tashlanib, shira bo'lib kelgan yuzlarini yalay boshladi. Singlim tishlamochi deb o'yladi chog'i, qattiq qichqirib yubordi. Shu payt haligi u orqa-oldiga qaramay qocha boshladi. Shu voqea sabab bo'ldi-yu, hammani qo'rqitib olgan «zo'ravon» singlim ikkimizni ko'rsa, boshini quyi egib, uyiga qochib kirib ketadigan bo'lib qoldi. Nima bo'lganda ham singlimdan, unga sovg'a ulashgan Qorbobodan juda minnatdorman.

Nazira QAYIPBERGANOVA,

Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xo'jayli tumanidagi 57 - maktab o'quvchisi.



TOPISHMOQLAR

Paxtadan u oq,
Beg'ubor har choq.
Ko'rinar tuzday,
Ushlasang muzday.


Ko'rinmay ko'zga,
Tushunmay so'zga.
Yerni changitar,
Seni gangitar.

Oynaday, quyosh o'tmas,
Uyingni issiq tutmas.

Bo'g'otlarda yaltirar,
Bahor kelsa qaltirar.

Sarviqomat, go'zal «qiz»,
Yasatamiz uni biz.

Bobomurod CHORI o'g'li,
Surxondaryo viloyati,
Angor tumani, Kayron mahallasi.



Poytaxtdagi 51-maktabning 4-sinf o'quvchisi
Asilbek MIRKOMOLOV qish manzaralarini chizib yuboribdi.



QORLAR ERIB KETMASIN

Muzlatgichga qorlarni solayotgan Salimdan onasi so'radi:

-O'g'lim, nega qorlarni muzxonaga solayapsan?

-Qorlar bahorgacha erib ketmasin, deya bman-da,- deb javob berdi Salim.

QIZIL QOR YOQQANDA...

Nodira Akmalidan chanasini uchib turishga so'radi.

Akmal:

-Qizil qor yoqqanda beraman,- deb javob berdi.

Shu payt Nodira oyisining oldiga yugurib bordi va:

-Oyijon, qizil qor qachon yog'adi, menga Akmal chanasini berib turarkan,- dedi.

SUVNI ISROF QILMAYLIK

Abdulla qorni choynakka solib, gazga qo'ydi. Buni kuzatib turgan onasi:

-O'g'lim, nega bunday qilayapsan?- deb so'radi.

-Axir o'zingiz «suvni isrof qilmaslik kerak», derdingiz-ku,- deb javob beribdi Abdulla.

Dilshod G'OFUROV,
Toshkent shahridagi
169-maktab o'quvchisi.

XUSH KELIBSAN, YANGI YIL!

Qish sovg'asi - momiq qor,
Zamin uzra to'shalar.
Bolajonlar orzisi,
Ushbu kunda ushalar.
Archaning atrofida,
Kuy-qo'shiqlar dil tortar.
Qorbobo, Qorqiz bilan,
Qalbda zavqu-shayq ortar.
Xush kelibsan, Yangi yil,
Yangi kunu, yangi oy.
Ulashasan olamga,
Oppoa, nafis bir chiroy.

Surayyo REJAPOVA,
Toshkent shahar,
Shayxontohur tumanidagi
22 - o'rtta maktab o'qituvchisi.

YULDUZCHALAR BO'YLAB KETMA-KETLIKDA

1. Rossiyalik bolalar qorboboni nima deb atashadi? 2. Qafas. 3. XVII asrda yashagan o'zbek shoirasining ismi. 4. Asakaning 4- «farzandi». 5. Yulduz nomi. 6. Dunyoning eng mashhur avtomobillari «BMV» va «Mercedes» larning yurti. 7. Biror obraz yaratuvchi, uni sahnado, kinoda ijro etuvchi. 8. Muborak oy. 9. Yordam, dalda. 10. ...-umumiy uyimiz. 11. Kun va tun teng bo'ladigan kun. 12. Xalqimizning suyuqli shoirasi, xalqaro «Nilufar» mukofoti sovrindori. 13. Yangi yil ko'rki. 14. Asalxo'r mavjudot. 15. Qorboboning «nabirasi». 16. Hajviy telejurnal.

BO'YIGA:

1. Kitob, daftarlarning beti, sahifasi. 2. «Uz DAEWOO» joylashgan shaharning nomi. 5. Falak, samo. 6. Yengil topshiriq. 7. Noyob, kamyob. 8. Soy, ko'lining «uka»si. 10. Nomus, hayo. 11. G'arbliklar Qorbobonini qanday atashadi? Masalan AQShda? 16. Musiqadagi 7-nota. 19. Qadimda shaharlarning markazi qanday atalgan? 25. Teskarisi.

ENIGA:

1. Ko'makchi bog'lovchi. 3. Hassa. 4. Aqli teran. 6. Insonning eng yaqin kishisi. 9. Mo'tabar ne'mat. 12. «Sen» olmoshining shevada ishlatilishi. 13. Ko'rsatish olmoshi. 14. Padari buzrukvor. 15. Boshida sochi yo'q. 16. Obihayot. 17. Hid. 18. Meva nomi. 20. «... va jamiyat» (gazeta). 21. Tutqun ayol. 22. Orzu. 23. Nota. 24. Davlat.

Tuzuvchi: Nigora HUSNIDDIN qizi.

TONG yulduzi

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Bosh muharrir
o'rinbosari:
Feruza JALILOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Umida ABDUAZIMOVA

(Bosh muharrir),
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,

Oynisa
MUSURMONOVA,

Qahramon
QURONBOYEV,

Po'lat MO'MIN,
Mukarrama

MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,

Ergashvoy SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi
kompyuter bo'limida
terib sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
«O'zbekiston»
nashriyoti matbaa
bazasida chop etildi.
Adadi - 10519
Korxona manzili:
700129,
Toshkent,
Navoiy
ko'chasi, 30.
Buyurtma № 1 - 27
Gazetani
Otabek
ESHCHANOV
sahifaladi.
Navbatchi:
Jamila
ERDONOVA

Bizning elektron
pochtamiz:
ijod@uzpak.uz

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

Tel: 144-63-08
144-62-34
Tel./ faks:
(99871) 144-37-24

